

О'SIMLIKLAR, HAYVONOT DUNYOSI VA ULARNI MUHOFAZA QILISH

O'qituvchi: Alimardonova Mo'tabar

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ergasheva Umida

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'simliklar va hayvonot dunyosining sayyoramizdagi ekologik muvozanatni saqlashdagi o'rni, ularning tabiatga va inson hayotiga bo'lgan ta'siri chuqur yoritilgan. O'simliklar kislorod ishlab chiqarish, tuproqni eroziyadan himoya qilish va oziq-ovqat manbai sifatida tabiatda muhim funksiyani bajaradi. Xuddi shuningdek, hayvonlar ham ekotizimda oziq zanjirining ajralmas bo'lagi bo'lib, biologik xilma-xillikni ta'minlaydi. Maqolada hozirgi kunda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar – noqonuniy ov, o'rmonlarning kesilishi, sanoat chiqindilari tufayli biologik resurslarning kamayib borayotganligi muhokama etiladi. Shu bilan birga, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishning asosiy yo'llari – qo'riqxonalar tashkil etish, qonuniy tartiblarni kuchaytirish, ekologik ta'lim-tarbiya va jamoatchilikni jalb etish kabi masalalar yoritilgan. Tadqiqotlar asosida keltirilgan ma'lumotlar bugungi kunda har bir fuqaroning tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Maqola ekologik ongni oshirishga qaratilgan bo'lib, tabiatni asrashda amaliy choralarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: O'simliklar, hayvonot dunyosi, biologik xilma-xillik, ekologik muvozanat, tabiatni muhofaza qilish, qo'riqxonalar, ekologik muammolar, yashash muhit, ekologik ta'lim, tabiiy resurslar.

Annotation: This article thoroughly highlights the role of flora and fauna in maintaining ecological balance on our planet and their impact on nature and human life. Plants play a vital role in nature by producing oxygen, protecting soil from erosion,

and serving as a source of food. Similarly, animals are an integral part of the food chain within ecosystems, contributing to biodiversity. The article discusses current environmental issues such as illegal hunting, deforestation, and industrial waste, which are leading to the depletion of biological resources. It also outlines key methods for protecting plant and animal life, including the establishment of nature reserves, strengthening legal regulations, promoting environmental education, and engaging the public. Based on research findings, the article emphasizes the necessity for every citizen to act responsibly towards nature. It aims to raise environmental awareness and proposes practical measures for nature conservation.

Keywords: plants, fauna, biodiversity, ecological balance, nature conservation, nature reserves, environmental issues, habitat, environmental education, natural resources.

Аннотация: В данной статье всесторонне освещается роль растительного и животного мира в поддержании экологического баланса на нашей планете, а также их влияние на природу и жизнь человека. Растения выполняют важные функции в природе — производят кислород, защищают почву от эрозии и служат источником пищи. Животные, в свою очередь, являются неотъемлемой частью пищевой цепи в экосистемах и способствуют сохранению биологического разнообразия. В статье рассматриваются современные экологические проблемы — незаконная охота, вырубка лесов, промышленные отходы, приводящие к сокращению биологических ресурсов. Также освещаются основные способы охраны растительного и животного мира: создание заповедников, ужесточение законодательства, экологическое просвещение и привлечение общественности. Приведённые в статье исследования подчёркивают необходимость ответственного отношения каждого гражданина к природе. Материал направлен на повышение экологического сознания и предлагает практические меры по охране окружающей среды.

Ключевые слова: растения, животный мир, биологическое разнообразие, экологическое равновесие, охрана природы, заповедники, экологические проблемы, среда обитания, экологическое образование, природные ресурсы.

Kirish. Tabiat – bu hayot manbai, insoniyatning mavjudligi va yashashi uchun eng muhim asosdir. Tabiat tarkibida o‘simliklar, hayvonot dunyosi, suv, havo, tuproq kabi turli omillar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos funksiyani bajaradi. O‘simliklar va hayvonot dunyosi tabiatning ajralmas bo‘lagi sifatida ekologik tizimning barqarorligini ta’minlaydi. Aynan shu sababli ularni asrash, himoya qilish va kelajak avlodlarga butun holatda yetkazish har bir insonning muqaddas burchidir. Bugungi globallashuv jarayonida texnologik taraqqiyot va sanoat rivoji natijasida tabiat resurslariga bo‘lgan bosim ortib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, biologik xilma-xillikning kamayishiga, ba’zi turlar yo‘qolib ketish xavfi ostida qolishiga sabab bo‘lmoqda. O‘simliklar kislorod ishlab chiqarib, inson va hayvonlar uchun zarur muhitni yaratadi. Ular nafaqat hayot manbai, balki oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak va boshqa ko‘plab ehtiyojlar uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, hayvonot dunyosi ham tabiatda o‘ziga xos o‘ringa ega. Har bir hayvon turi muayyan ekotizimda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ba’zi qushlar urug‘larni tarqatishda, ba’zi hasharotlar esa o‘simliklarning changlanishida ishtirok etadi. Yirtqich hayvonlar esa populyatsiyani nazorat qilib, tabiiy tanlov orqali sog‘lom nasl davomiyligini ta’minlaydi. Afsuski, so‘nggi yillarda insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabati ko‘plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Noqonuniy daraxt kesishlar, noqonuniy ovchilik, yerlarning melioratsiyasi, atrof-muhitning ifloslanishi natijasida ko‘plab o‘simlik va hayvon turlari yo‘qolib ketmoqda. Bu esa ekotizim muvozanatini buzib, turli ekologik muammolarni yuzaga keltiradi. Shu bois, bugungi kunda o‘simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy zaruriyatga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda tabiatni muhofaza qilish borasida qator chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, biosfera rezervatlari tashkil etilib, noyob va yo‘qolib borayotgan turlar alohida himoyaga olingan. Shuningdek, aholining ekologik madaniyatini oshirish, yoshlarda tabiatga mehr-muhabbat uyg‘otish maqsadida ta‘lim muassasalarida ekologik targ‘ibot ishlari olib borilmoqda. O‘simliklar va hayvonot dunyosining insoniyat hayotidagi o‘rni, ularni muhofaza qilishning dolzarb jihatlari hamda mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida fikr yuritiladi. Maqsad – tabiatning noyob boyliklari haqida chuqurroq tushuncha berish, ularni asrashga da‘vat etish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga hissa qo‘shishdir.

Adabiyotlar tahlili. O. Tojiboyev – o‘zining “Ekologiya asoslari” nomli asarida biologik xilma-xillik, o‘simlik va hayvon turlarining ekotizimdagi roli haqida ilmiy asoslangan ma‘lumotlar beradi. Muallif inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni tahlil qilib, ularni bartaraf etish yo‘llarini taklif qiladi.

Sh. Karimov – uning ekologiya va biologik resurslarni muhofaza qilishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalari O‘zbekiston hududidagi noyob va endemik turlarni saqlab qolish muammolarini yoritadi. U qo‘riqxonalar tizimining takomillashtirilishini dolzarb masala sifatida ko‘rsatadi.

D. Jo‘rayev – o‘z tadqiqotlarida o‘simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishda ekologik ta‘lim va tarbiyaning o‘rni haqida fikr yuritadi. U aholining ekologik madaniyatini oshirish orqali tabiatni asrashga erishish mumkinligini ta‘kidlaydi.

Edward O. Wilson (AQSh) – taniqli biolog va ekolog. Uning "The Diversity of Life" asarida biologik xilma-xillikning yer yuzidagi mavjudligi, yo‘qolish sabablari va insoniyat uchun xavflari haqida atroflicha ma‘lumot berilgan. Wilson hayvonot va o‘simlik turlarini asrashni global masala deb hisoblaydi.

David Attenborough (Buyuk Britaniya) – mashhur tabiatshunos va hujjatli filmlar muallifi. Uning “A Life on Our Planet” asari ekologik inqiroz, hayvonot olami

yo'qolish xavfi va insoniyatning ushbu jarayonda tutgan o'rnini haqida chuqur mulohazalarga boy. U global miqyosdagi tabiiy boyliklarni muhofaza qilish choralari keng targ'ib qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlar asos qilib olindi:

Tahliliy (analitik) metod – mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar, ekologik holat bo'yicha hisobotlar o'rganildi va ularning asosida o'simliklar hamda hayvonot dunyosining bugungi holati haqida umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi.

Taqqoslash usuli – turli davrlarda va hududlarda o'simliklar va hayvonot dunyosining holati, ular bilan bog'liq ekologik muammolar tahlil qilinib, ularning o'zgarish dinamikasi taqqoslab ko'rsatildi.

Empirik kuzatuv – O'zbekiston hududidagi ayrim qo'riqxonalar, milliy bog'lar va tabiiy muhofaza hududlari faoliyati o'rganildi, mavjud muammolar va ularni hal etish mexanizmlari kuzatildi.

Statistik ma'lumotlar tahlili – Davlat statistika qo'mitasi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi hamda xalqaro ekologik tashkilotlar ma'lumotlari asosida biologik xilma-xillikning o'zgarishiga oid raqamli ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Sotsiologik yondashuv – aholining ekologik madaniyati, tabiatga bo'lgan munosabati va ekologik ta'lim-tarbiya darajasini o'rganish maqsadida so'rovnoma va suhbat usullari qo'llandi.

Natija va muhokama. O'simliklar va hayvonot dunyosi global va mintaqaviy ekotizimlarning asosiy tayanchi hisoblanadi. Ularning barqaror mavjudligi nafaqat atrof-muhit muvozanati, balki inson salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot uchun ham muhim omildir. Afsuski, so'nggi o'n yilliklarda insoniyat faoliyati – urbanizatsiya, sanoatlashtirish, qishloq xo'jaligi yerlarining kengaytirilishi, noqonuniy ov va o'rmon kesish kabi holatlar biologik xilma-xillikka jiddiy zarar yetkazmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda biologik resurslarni muhofaza qilish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, "Qizil kitob"ning muntazam yangilanib borilishi, qo'riqxonalar va milliy bog'larning tashkil etilishi, ekologik qonunchilikning takomillashuvi – bularning barchasi o'simlik va hayvonot olamining yo'qolib ketish xavfini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, muammo hali to'liq hal etilgan deb bo'lmaydi. Ko'plab turlar yo'qolish xavfi ostida qolmoqda, ayrim hududlarda ekologik nazorat sust, ekologik ta'lim esa hali keng ommani to'liq qamrab olgan emas.

O'simlik va hayvonot dunyosini saqlab qolish uchun ilmiy asoslangan yondashuv zarur, bu borada mahalliy hamda xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish muhim. Tabiatni muhofaza qilish faqat davlat muassasalari emas, balki fuqarolik jamiyati, yoshlar va keng jamoatchilik ishtirokida amalga oshirilishi kerak. Ekologik ta'lim va targ'ibot ishlarini kengaytirish, ayniqsa, yosh avlodda tabiatga mehr-muhabbatni shakllantirish – uzoq muddatli ekologik barqarorlik garovidir. Shunday qilib, ushbu tadqiqot orqali aniqlanganki, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish har bir insonning burchi bo'lib, bu boradagi sa'y-harakatlar ekologik xavfsizlik va sog'lom kelajakni ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. O'simliklar va hayvonot dunyosi – tabiatning ajralmas va bebaho boyligi bo'lib, ularni muhofaza qilish ekologik barqarorlikni saqlashning eng muhim omillaridandir. Ularning yo'qolishi nafaqat tabiiy muvozanatning buzilishiga, balki inson salomatligi, oziq-ovqat xavfsizligi va iqlim o'zgarishlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ekotizimda har bir turning o'ziga xos o'rni mavjud bo'lib, ularning har biri bir-biriga bevosita yoki bilvosita bog'langan.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda biologik xilma-xillikni saqlash bo'yicha ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Qo'riqxonalar sonining ortishi, "Qizil kitob"ning nashr etilishi, ekologik qonunchilikning takomillashuvi — bularning barchasi muhim qadamlar hisoblanadi. Biroq mavjud holat bu boradagi ishlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo etmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Yangi qo'riqxonalar va milliy bog'lar tashkil etish, mavjudlarini zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida rivojlantirish zarur.

Ekologik ta'lim va tarbiyani maktabgacha yoshdan boshlab bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish, o'quv dasturlariga tabiatni muhofaza qilishga oid mavzularni chuqurroq kiritish.

Jamoatchilikni jalb etgan holda ekologik nazoratni kuchaytirish, ayniqsa noqonuniy ov, o'rmon kesish va ifloslanishga qarshi kurashishda.

Biologik resurslar monitoringini yurituvchi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish (sun'iy yo'ldosh kuzatuvlari, GPS monitoring, biologik ma'lumotlar bazalari).

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish, ayniqsa yo'qolib borayotgan turlarni saqlash, genetik resurslarni muhofaza qilish borasida ilmiy almashinuvlar va loyihalarda ishtirok etish.

Xulosa qilib aytganda, o'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish jamiyatning har bir a'zosidan ekologik ong, mas'uliyat va faol ishtirokni talab etadi. Bu esa sog'lom, barqaror va yashnagan kelajak sari muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Tojiboyev O. Ekologiya asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2018. – 280 b.
2. Karimov Sh. Biologik xilma-xillik va uni muhofaza qilish muammolari. – "Fan va turmush" jurnali, 2021-yil, №3. – B. 22–26.
3. Jo'rayev D. O'simlik va hayvonot olamini muhofaza qilishda ekologik tarbiyaning o'rni. – "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" ilmiy-amaliy to'plam, 2022. – B. 45–49.

4. Wilson E.O. The Diversity of Life. – Cambridge, Massachusetts: Harvard University Press, 1999. – 432 p.

5. Attenborough D. A Life on Our Planet: My Witness Statement and a Vision for the Future. – London: Ebury Publishing, 2020. – 266 p.